

GAP LISONIY SINTAKTIK QOLIPIDA TO'LDIRUVCHILARNING O'RNI

Termiz davlat universiteti talabasi:
G'afforova Zamira Eshnazar qizi
Ilmiy rahbar. **D.A.Ergasheva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada gap lisoniy sintaktik qolipida to'ldiruvchilarning o'rni lingvistik tahlillar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, lisoniy sintaktik qolip, to'ldiruvchi, subyekt va predikat aloqasi, harakat, belgi.

To'ldiruvchi o'z hokim so'ziga odatda boshqaruv yo'li bilan bog'lanadigan ikkinchi darajali bo'lak hisoblanad: to'ldiruvchining kesim bilan bo'lgan asosiy sintaktik munosabati boshqaruvidir. Shunday ekan, to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan xarakat, belgi o'ziga yo'nalgan, o'tgan (shu harakatni o'ziga qabul qilgan) yo shu harakatga qandaydir yo'l bilan bog'langan predmetni ko'rsatadi. Demak to'ldiruvchi ham predmetni ifodalovchi bo'lakdir. Bu jihatdan uning ega bilan o'xshashligi bor, biroq ega hokim holatdagi predmetni, to'ldiruvchi esa tobe holatdagi predmetni bildiradi. Bu hokim-tobelikni ularning grammatik ifodalanishida ham o'z ayrimligini ko'rsatib turadi. Ega bosh kelishikdagi so'z bo'ladi, to'ldiruvchi esa vosita kelishiklaridan biri (qaratqich kelishigi bundan mustasno) yoki ko'makchilar bilan keladi, bular uning tobeligini ko'rsatuvchi belgilardir. Fikrimizni isboti sifatida: *Kolxozchilar yerni o'g'it bilan kuchaytirdilar*, gapiga e'tibor qaratsak. Ushbu gapda ikkita to'ldiruvchi ishtirok etgan, birinchisi –ni tushum kelishigi yordamida va ikkinchisi bilan ko'makchisi yordamida kesimga bog'lanib kelyapti.

Bundan anglashimiz mumkinki, subyekt va predikat aloqasida subyektning harakatiga ma'lum bir yo'l bilan bog'langan predmetni-ob'ektni ifodalovchi bo'lak to'ldiruvchi bo'lib kelishini. To'ldiruvchi hokim holatdagi predmetning harakat yoki holatining vujudga kelishida ishtirok etuvchi ikkinchi bir predmetni, tobe holatdagi predmetni bildiradi. Masalan: *Biz paxtani mashina bilan teramiz* gapini olaylik. Bunda: terim ishining bo'lishi uchun dastlab bajaruvchi lozim. Bu bajaruvchi *bizdir*, shunga ko'ra u hokim holatdagi predmetdir. *Terish* o'tuvchi harakatni anglatganligidan, bu o'tish harakatiga mo'ljal bo'lgan predmet-ob'ekt lozim, bu ob'ekt *paxta*dir. Bu harakatning o'tishining vujudga kelishida vosita bo'lgan predmet mashinadir. Demak, *paxta, mashina* so'zlari to'ldiruvchidir. Bu bo'laklar kesimni to'ldiradi, aniqlik, to'lalilik kiritadi. Agarda ushbu bo'laklar kelmaganida edi fikr to'la anglashilmay qolishi mumkin.

To'ldiruvchi boshqaruvchi so'zga tobe bo'lib, u boshqaruvchi sanaladi. Uning bu tobeligi, hokim so'zga bog'lanishi har xildir. Bu tobelanish: 1. Kelishik affiksi

yordami bilan bo'ladi (*Sen Muxlisani chaqir*) – kelishikli konstruksiya. 2.Ko'makchi so'z yordami bilan bo'ladi (*Xatni qalam bilan yozdi*)-ko'makchili konstruksiya. 3.Ham kelishikli, ko'makchining ishtiroki bilan, har ikkisinin kombinatsiyasi bilan bo'ladi (*U senga qadar-seni ham-sengacha so'radi*) 4.Kelishik ham, ko'makchi ham qo'llanmay, yashirin holda bo'ladi (*U gul keltirdi*). Demak, bunday hollarda bosh kelishikdagi so'zning funksiyasi tushum kelishigidagi so'zning funksiyasiga to'g'ri keladi.

To'ldiruvchi odatda kesimga bog'lanadi, biroq boshqaruvchi so'zning ba'zan boshqa vazifada bo'lib qolish imkoniyatining ham borligi uning egaga, aniqlovchiga, boshqa bir to'ldiruvchiga, holga bog'langan bo'lishi ham mumkinligini ko'rsatadi: 1.Egaga bog'lanadi: *Buni senga aytish juda ham qiyin*. 2.Aniqlovchiga bog'lanadi: *Ko'zni kuldirganning mukofoti bor*. 3.To'ldiruvchiga bog'lanadi: *Gulni berganga xursand bo'ldim* va boshqalar.

To'ldiruvchi ham predmetni ma'nosini anglatganidan, qanday so'z bilan ifodalanishi jihatidan egaga o'xshaydi. U ot bilan yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

To'ldiruvchilarning qanday so'z bilan ifodalanish jihatidan turlariga misollar:

Ot to'ldiruvchi. Masalan: Ona qo'lini o'g'lining boshiga qo'ydi.

Olmosh to'ldiruvchi. Masalan:Senga aytay dilimdagi sirimni.

Sifat to'ldiruvchi. Masalan: Yaxshida bog' qoladi.

Son to'ldiruvchi. Masalan: Ikkinini ikkiga ko'paytirsak to'rt bo'ladi.

Sifatdosh to'ldiruvchi. Masalan: So'zni aytgin uqqanga, jonni jonga suqqanga.

(Maqol)

Infinitiv (ish oti) to'ldiruvchi. Masalan: O'qimoqni qildim orzu.

To'ldiruvchilarning harakatni o'ziga bevosita va bivosita qabul qilgan, harakat o'ziga o'tgan,yo'nalgan predmetni anglatadigan bo'lak ekanligini ko'rib o'tdik. Harakat bilan predmet orasidagi munosabatning bunday farqlanishiga, qanday harakterda bo'lishiga qarab, to'ldiruvchilar ikki turga bo'linadi: vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish faqat o'timli fe'lga xos. Shu bosidan vaositasiz to'ldiruvchi-o'timli fe'lning ob'ekt valentligini to'ldiruvchi so'z kengaytiruvchisidir.Vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bosh yoki tushum kelishigidagi so'z keladi: 1.Bosh kelishikdagi vasitasiz to'ldiruvchi: *Bunda bulbul kitob o'qiydi*. 2.Tushum keishigidagi vositasiz to'ldiruvchi: *Sen bahorni sog'inmadingmi?*

Vositasiz to'ldiruvchi bevosita harakatni o'z ustiga olgan predmetni anglatsa, vositali to'ldiruvchi harakatni qamrab olgan, lekin harakatga daxldor bo'lmagan predmetni ifodalaydi.

Vositali to'ldiruvchi har xil garmmatik ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1.Jo'nalish kelishigi: *Onamga oldim*.

2.O'rin-payt kelishigi: *Senda bormi.*

3.Chiqish kelishigi: *Ustozimdan o'rgandim.*

4.Ko'makchi: *Singlim uchun oldim.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.G'.G'ulomov, M A.Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "O'qituvchi"nashriyoti. Toshkent -1965
2. R.R.Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"2020